

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatlari o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
<b>A.A.Parmonov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili .....	90
<b>M.A.Tursunboyeva</b>	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi .....	97
<b>M.I.Boymanova</b>	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish .....	102
<b>A.Matkarmov</b>	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida) .....	105
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	110
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiysi .....	114
<b>N.Sayimbetova</b>	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	117
<b>A.Abdullayev</b>	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi .....	121
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati .....	125
<b>S.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni .....	129
<b>D.O.Djalilova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati .....	138
<b>М.М.Азизов</b>	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба? .....	141
<b>L.Z.Xolmurodov</b>	
9-10 yoshdagи bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari .....	147
<b>I.M.Saidov</b>	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi .....	151
<b>O.A.Xo'jaqulov</b>	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyetyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari .....	155

## FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili .....	161
<b>B.B.Namozov</b>	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida .....	166
<b>M.T.Voxidova</b>	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari .....	172
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari .....	176

**AYOL RAHBARLARNING AXLOQIY VA ESTETIK MADANIYATINI  
INTEGRATSİYALASH ASOSIDA “RAHBAR AYOL” PORTRETINI SHAKLLANTIRISH  
VAZİFALARI**

**ЗАДАЧИ ФОРМИРОВАНИЯ ПОРТРЕТА «ЖЕНЩИНЫ-ЛИДЕРА» НА ОСНОВЕ  
ИНТЕГРАЦИИ ЭТИЧЕСКОЙ И ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЖЕНЩИН-ЛИДЕРОВ**

**TASKS OF FORMING A PORTRAIT OF A “WOMAN LEADER” BASED ON THE  
INTEGRATION OF THE ETHICAL AND AESTHETIC CULTURE OF WOMEN LEADERS**

**Arzimatova Inoyatxon Madimarovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Annotatsiya**

*Maqolada xotin-qizlarning davlat boshqaruvi tizimidagi faolligini oshirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning shaxsiy hodisa sifatidagi o'mni, ijtimoiy-siyosiy faol ayol portretini yaratish, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini o'rganish masalalarining ahamiyati o'rganilgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматривается значение повышения активности женщин в системе государственного управления, роль духовно-нравственных качеств как личностного феномена, создание портрета социально и политически активной женщины, а также, изучение общественно-политической активности женщин в системе государственного управления.*

**Abstract**

*The article examines the importance of increasing the activity of women in the public administration system, the role of spiritual and moral qualities as a personal phenomenon, creating a portrait of a socially and politically active woman, and studying the socio-political activity of women in the public administration system.*

**Kalit so'zlar:** davlat va jamiyat, rahbar ayol, ijtimoiy-siyosiy faoliyk, davlat boshqaruvi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, kadrlar siyosati, xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, liderlik xislatlari, jamoatchi, professional rahbar.

**Ключевые слова:** государство и общество, женщина-лидер, общественно-политическая деятельность, государственное управление, духовно-нравственные качества, кадровая политика, права и свободы женщин, лидерские качества, общественный деятель, профессиональный лидер.

**Key words:** state and society, woman leader, socio-political activity, public administration, spiritual and moral qualities, personnel policy, women's rights and freedoms, leadership qualities, public figure, professional leader.

**KIRISH**

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvi tizimidagi faolligini oshirish masalasini Respublikamizda hal etilayotgan va kun tartibiga qo'yilgan kadrlar siyosati bilan uyg'unlikda qarash darkor. Chunki fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish kundalik hayot talab etayotgan muammolarni tez hal etishgagina borib taqalmaydi, oxir oqibatda u kadrlar tayyorlash, ularni joy-joyiga qo'yish, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga qodir rezervlarni yetishtirishni ham nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hozirgi globallashuv davrida xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda [1. B. 160-161]".

Har qanday ijtimoiy-siyosiy faoliyat jamiyat va davlat ishlarini tashkil etishga, kishilarni boshqarishga qaratilgan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan u mudom ijtimoiy xarakterga ega faoliyatdir. Agar ushbu prinsipial fikrdan kelib chiqsak, davlat xizmatchilari bo'lgan professional rahbarlarga xos fazilatlar va liderlik xislatlari jamoatchi, ijtimoiy-siyosiy faol kishidan ham talab etiladi. Lekin professional rahbarga qo'yiladigan talablar bilan jamoatchiga, ijtimoiy-siyosiy faol kishiga qo'yiladigan talablar o'tasida jiddiy farqlar mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Professional rahbardan ijtimoiy-siyosiy liderlik xislatlari qat'iy talab etiladi. Uning o'z lavozimida qolishi ana shu xislatlarining yetarli darajada ekanligi tufaylidir. Jamoatchi, faollardan ular talab etilmaydi. Ijtimoiy-siyosiy yetakchilik, liderlik xislatlarini egallash yoki egallamaslik mutlaq ularning ixtiyoridadir, ammo ular liderlik xislatlari zarurligini unuta olmaydi.

2. Professional rahbar, boshqaruvchi davlat tomonidan o'rnatilgan kvalifikatsion talablarga va o'rnatilgan mehnat tartiblariga qat'iy bo'ysunishi lozim. Uning ish kuni, vazifalari, quyi va yuqori

## FALSAFA

idoralar bilan aloqalari, subordinatsion munosabatlari oldindan belgilab berilgan bo'ladi. Jamoatchilar, faollar uchun bunday tartiblar yo'q, ular o'zining ijtimoiy-siyosiy faolligini erkin, mustaqil, o'z imkoniyatlariga qarab amalga oshiradilar. Lekin bu masalan, nodavlat tashkilotlari, xotin-qizlar qo'mitasi, fuqarolar yig'ini rahbarlari istagan vaqtlarida ishga kelishi, istamagan paytda ishdan ketib qolishi mumkin ekan-da, degan fikrga olib kelmasligi zarur. Ijtimoiy-siyosiy faollik anglangan, ijtimoiy manfaatlarga xizmat qilishga qaratilgan faoliyat turi bo'lgani uchun ham jamoatchi, faol o'zini-o'zi qat'iy idora etadi, boshqaradi, ya'ni ma'lum bir tartiblarga qat'iy amal qiladi.

3. Professional rahbar, boshqaruvchi yuqori davlat boshqaruvi tizimi oldida mas'uldir, uning ko'rsatmalarini to'liq bajaradi. Jamoatchilarda, fappardan bunday mas'uliyat yo'q, ular avvalo o'z vijdoni, keyin esa yon-atrofidagi kishilar oldida ma'naviy javobgardir.

4. Jamoatchilar, faollar professional rahbar, boshqaruvchi irodasiga bo'y sunadi, chunki aynan ular butun ijtimoiy-siyosiy borliq uchun davlat oldida mas'uldir. Professional rahbar, boshqaruvchi bilan bamaslahat faoliyat olib borish ko'zlangan maqsadga erishishning samarali yo'lidir. To'g'ri, professional rahbar, boshqaruvchi ham xatoga yo'l qo'yishi, simpatiya-antipatiyaga berilishi, o'z manfaatlarini ko'zlashi mumkin. Bunday paytda professional xizmatchi bilan jamoatchi o'rtaida anglashilmovchiliklari, hatto nizolar kelib chiqishi mumkin. Anglashilmovchilik va nizolarning oldini olish har ikki tomondagi fazilatlarga, to'g'rirog'i, ma'naviy-axloqiy normalarga bog'liqdir.

5. Boshqaruv faoliyati mudom hammaslaklar, yordamchilar, qo'llab-quvvatlovchi kuchlar yordamida amalga oshiriladi. Bu o'rinda jamoatchilarning, faollarning yordamiga tayanish ob'ektiv zaruriyatga aylanadi. Agar rahbar ushbu zaruriyatni o'z vaqtida va to'g'ri anglab olmasa, u ko'zlangan maqsadga erisholmaydi yoki uzoq vaqtida, ko'p mablag' va kuch sarflab erishishi mumkin. Bunday muvaffaqiyat rahbarning o'ziga ham, uning yonidagilarga ham quvonch, qoniqish olib kelmaydi. Demak, gap lavozimda emas, balki lavozimni egallab turgan shaxsnинг liderlik xislatlaridadir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "rahbar ayol" portretini shakkantirish vazifalarini yoritishda Mirziyoyev Sh.M.[1], Xodjaeva S.A.[2], Aripov M.K.[3], Musaev F. [4,5], Blondel J.[6,7,8] asarlaridan unumli foydalanildi.

Muammoni o'rganishda umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jamoatchi, faollarning ijtimoiy-siyosiy xislatlarini o'rganayotgan tadqiqotchi faqat ularning xislatlarini aniqlash, qayd etish bilan cheklana olmaydi. Jamoatchi, faollarning ijtimoiy-siyosiy xislatlarini aniqlash ularni yana bir pog'onaga, ya'ni davlat boshqaruvi tizimi uchun zarur bo'lgan fazilatlarga ko'tarish yo'llarini belgilash uchun zarurdir. Jamoatchi, faollar davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritar ekan, ular, shubhasiz, ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy xislatlarga ega bo'lishi lozim. Ijtimoiy-siyosiy faoliyat shuni taqozo etadi, bu davlat boshqaruvi tizimida samarali ishlashni, faoliyat ko'rsatishni ta'minlaydi. Demak, biz ijtimoiy-siyosiy faol ayolning portretini yaratishda, birinchidan, undagi fazilatlarni aniqlashimiz, ikkinchidan, ushbu fazilatlarni bir pog'onaga ko'tarish, ya'ni davlat boshqaruvi tizimi talablaridan kelib chiqishimiz kerak. Jamoatchi, faol ayollarning ijtimoiy-siyosiy xislatlariga yuqoriq talab qo'ya turib, biz ularda ushbu xislatlarni rivojlantirish yo'llarini belgilab bergen bo'lamiz.

Falsafiy, sotsiologik, huquqiy, pedagogik va iqtisodiy adabiyotlarda ba'zan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi masalalari o'rganiladi. Faqat S.A.Xodjaevaning nomzodlik dissertatsiyasida ijtimoiy-huquqiy faol ayolning portretini yaratishga urinilgan. Boshqa adabiyotlar va tadqiqotlarda mazkur masala chetlab o'tiladi, bu esa mualliflarning ilmiy-nazariy qarashlari, konsepsiyanining chala yoritilishiga olib keladi.

S.A.Xodjayeva ijtimoiy-huquqiy faol ayol portretini quyidagilardan iborat, deb ko'rsatadi. Ijtimoiy-huquqiy faol ayol: 1) o'z mahallasi, tumani, shahri ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etadigan, jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatgan; 2) siyosiy partiyalar yoki jamoat tashkilotlaridan biriga a'zo, 41-66 yoshlarda, oliy gumanitar ma'lumotga ega; 3) oilali, huquqqa oid nashrlardan birini doimo o'qib boradi, xotin-qizlar masalasi tarixi va zamonaviy gender muammolari bilan qiziqadigan; 4) kishilardagi tartiblilik, insonparvarlik, axloqiylik yoqadigan, kishilar davrasida

bo'lishni istaydigan shaxsdir [2. C. 19]. Ko'riniib turibdiki, S.A.Xodjaeva ijtimoiy-huquqiy faol ayol portretini deyarli nafaqa yoshiga yaqin ayollardan keltirib chiqaradi, u bizga ma'lum bo'lgan 30-40 yoshlardagi ayollarni hisobga olmaydi. Afsuski, ijtimoiy-huquqiy faol ayol portretini u hozirgi davrda yashayotgan, mustaqil Respublikamiz manfaatlariiga xizmat qilayotgan xotin-qizlardan emas, balki negadir sovet davrida yashagan, kommunistik mafkuraga xizmat qilgan ayollardan qidiradi, yaratadi. O'tgan, ayniqsa milliy taraqqiyotga zid davrdan hozirgi, zamonaviy ijtimoiy-huquqiy faol ayol portretini yaratishga noto'g'ri yondoshishdir. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot bosqichiga o'tgach, xotin-qizlarimiz ongida, qiziqishlari va turmush tarzida, ijtimoiy borliqqa munosabatlarida keskin o'zgarishlar ro'y berdi, bularni hisobga olmay ijtimoiy faol ayol portretini yaratib bo'lmaydi.

Tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqib, biz zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy faol ayolga xos fazilat va xislatlarni ikki guruhg'a klassifikatsiyalash mumkin, degan xulosaga keldik. Ular: 1) ma'naviy-axloqiy fazilatlar va 2) liderlik (yetakchilik) xislatlaridir.

I. Ma'naviy-axloqiy fazilatlar xotin-qizlarimizga qadimdan xos bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonida shakllanib, milliy qadriyatlarimizga aylangan, hozir ham ayollarimizning xatti-harakatlari, turmush tarzi va ijtimoiy borliqqa munosabatlarini belgilab berayotgan ko'rsatkichlardir. Ekspert-respondentlarimizning 83 foizi, qolgan respondentlarimizning 91 foizi zamonaviy rahbarga, shu jumladan, ayol rahbarlarga ma'naviy-axloqiy fazilatlar xos bo'lishi lozim, deb ko'rsatishadi. Bu shunchaki istak, fikr emas, unda xalqimiz tomonidan yartilgan, hozir ham e'zozlanadigan, insondagi go'zal fazilatlarni ulug'lash an'anasi o'z ifodasini topgan.

Agar Yusuf Xos Hojib va Forobiydan tortib to Fitratgacha eslaydigan bo'lsak, barcha mutafakkirlarimiz davlat boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ma'naviy-axloqiy fazilatlariga e'tibor bergenlar. Bu ularning subyektiv qarashlari va xohishlarining ifodasi bo'lmay, xalqning, aholining orzu-tilaklari edi [3. C 12-17].

Xo'sh, nima uchun rahbarlardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarga e'tibor beriladi? Davlat boshqaruvi tizimi eng avvalo liderlik xislatlarini talab etmasdimi?

Sharqona tasavvur va hayot tarziga ko'ra, insondagi barcha fazilatlar markazini ma'naviyat, axloq tashkil qiladi. Inson nimalar qilmasin, qanday kashfiyotlarga erishmasin, uning barcha sa'y-harakatlari boshqalarga, el-yurtga ma'naviy-axloqiy ta'sir etgani bilan o'lchanadi. F.Musaev yozganidek: "Inson jamiyat hayotidagi barcha munosabatlarga muayyan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida yondashadi. Imonli, insofli, halol bo'lish, haromdan hazar qilish, birovning haqqiga ko'z olaytirmaslik, mehr-muruvvatlilik, rahm-shafqatlilik, oqibatlilik, sharm-hayolilik, do'stlik kabilar ma'naviy-axloqiy qadriyatlardir. Ular asrlar davomida hayot sinovlaridan o'tib, insonning, xalqning hayot tarzidan, dunyoqarashidan, yon-atrofga munosabatlaridan joy olgan. Ijtimoiy-tarixiy paradigma, yashash tarziga aylangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan demokratik o'zgarishlar bir-biridan yiroq, bir-biriga qayishmaydigan narsalar, bir-biriga yot vogelikdek tuyuladi. Aslida har qanday o'zgarish ma'naviyatimizni, axloqimizni boyitishi bilan qadrlidir" [4. B. 234-235]. "Bizda demokratiya ijtimoiy-siyosiy institutlarni o'zgartirish va ularni modernizatsiyalashdangina iborat emas, u xalqimiz ijtimoiy hayotining tarkibiy qismi, jamiyatimizda mustaqililik yillarda yaratilgan ma'naviy-axloqiy boylikning kvintessensiyasidir. Demokratik taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligi xalqimizning sharqona fazilatlari, sharqona tafakkuri va sharqona turmush tarzidan kelib chiqadi. Shuning uchun sharqona axloq-odob bilan sharqona demokratiya uyg'unligi milliy taraqqiyotimizga xos belgidir" [5. B. 236].

Agar bizda rahbar xodimlarga, uning ma'naviy-axloqiy fazilatlariga alohida e'tibor berilayotgan bo'lsa, bu eng avvalo, ushbu ijtimoiy-tarixiy paradigma, xalqimiz asrab-avaylab kelayotgan qadriyatlar tufaylidir.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar shaxsiy hodisa sifatida insonning ruhi, ongi, tasavvurlari, odob-axloq normalari, kishilarga munosabatlari, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi mulohazalari majmuidir. Ular sub'ektiv vogeligi bilan ajralib turadi. Inson ijtimoiy borliq bilan munosabatlarini ushbu sub'ektiv vogelik sintezidan o'tkazadi. Shubhasiz, sub'ektiv vogelik ijtimoiy hayot, ijtimoiy-siyosiy faol shaxslarda esa liderlik-tashkilotchilik sifatlari ta'sirisiz shakllanmaydi. Ulardan qaysi biri oldin shakllanishini hech kim aniq aytolmaydi, chunki sub'ektiv va ob'ektiv hodisalar mudom dialektik aloqalarning mahsulidir. Agar shaxsdagi ehtiyyotkorlikni, yetti o'lchab bir kesish xislatini e'tiborga olib, undan lider-tashkilotchi, ijtimoiy-siyosiy faol sub'ekt chiqmaydi, degan xulosaga borsak, inson psixologiyasini, ma'naviy-ruhiy, ijodiy potensialini mensimaslikdek xatoga yo'l qo'yamiz. Har qanday kishini, agar uning aqli raso, muloqotga kirishish imkonii bo'lsa, lider-tashkilotchilikka o'rgatish mumkin. Lekin bunday kishidagi ma'naviy-axloqiy fazilatlar ijtimoiy

## FALSAFA

muhitda qaror topgan, kishilar e'zozlaydigan va amal qiladigan axloq-odob normalariga muvofiq kelishi zarur.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarning immanent belgilari shundaki, ularni har kim har xil tushunadi, ular har kimga har xil ta'sir qiladi. Kimgadir qo'l berib yoki quchoqlashib ko'rishish yaxshi axloq-odob bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo amaliyotdan yaxshi ma'lumki, rahbar xodim hatto har kuni yonma-yon xonada o'tiradigan, juda yaqin maslakdosh va yordamchi bo'lib qolgan xodimlari bilan ham mudom qo'l berib yoki quchoqlashib ko'rishavermaydi. Boshqarish, rahbarlikning o'ziga xos etikasi, axloq-odob normalari mavjudki, kishilar ularga hech qanday e'tirozsiz bo'ysunadilar, amal qiladilar.

Tajribalar ko'rsatadiki, rahbar faol, qancha bosiq va yetti o'lchab bir kesadigan bo'lmasin, ba'zan befarqlik, qo'rslik, hatto bag'ritoshlik qiliши mumkin. O'z hukmini o'tkazishga intilmaydigan rahbarning, tashkilotchining o'zi yo'q. To'g'ri, mazkur uslub demokratiya talablariaga muvofiq kelmaydi. Agar rahbar sofdil, mehribon, ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab yashayotgan, ishlayotgan bo'lsa, kishilar, ayniqsa qo'l ostida uzoq yillardan beri ishlab kelayotgan xodimlar uning befarqligini, qo'rsligini kechiradilar, bag'ritoshlik qilib qo'yanini unutadilar. Gohida uchrab turadigan ma'naviy-axloqiy normalardan chekinish ko'zlangan maqsadga yetishga xalaqit bermasa, kishilarni yanada dadilroq, uyushqoqlik bilan ishlashga yetaklasa, o'zini oqlaydi. Bu qanday bo'lsa ham maqsadga yetish zarur, maqsadga yetish uchun barcha vositalar a'lo, degan tamoyil emas, balki boshqarish faoliyatida goho uchrab turadigan noodatiy holdir. Lekin har doim, har bir vazifani topshirayotganida yoki qaror, reja qabul qilinayotganida qo'rslik qiladigan, faqat hukmini o'tkazish bilan cheklanadigan rahbarni, tashkilotchini, faolni kishilar hurmat qilmaydilar, undan qochadilar.

Ekspert-respondentlarimizga "Rahbar ayoldagi qanday ma'naviy-axloqiy fazilatlar sizga ko'proq yoqadi?" degan savol bilan murojaat etdik. Maqsadimiz faol ayolning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini aniqlash va ulardan portret yasashda foydalanish edi. Olgan javoblarimiz quyidagicha bo'ldi:

- insonparvarlik (88 %);
- mehribonlik (87 %);
- halollik (82 %);
- dilkashlik (64 %);
- do'stlik (61 %);
- odoblilik (47 %);
- kamtarlik (42 %);
- beg'arazlik (40 %);
- kechirimlilik (39 %);
- sodiqlik (37 %);
- insofililik (36 %);
- hamdardlik (34 %) (Ekspert-respondentlar bir necha javoblarni bildirishgan, shuning uchun foizlar yuzdan ziyod).

Ko'rinib turibdiki, ekspert-respondentlar birinchi o'ringa rahbar-ayoldagi insonparvarlik (88 %), mehribonlik (87 %) va halollik (82 %)ni qo'yadilar. Ushbu uch ma'naviy-axloqiy fazilatlar qolgan oddiy respondentlarda ham eng yuqori ko'rsatkichlar beradi. Ulardan olgan javoblarimiz quyidagicha:

- halollik (91 %);
- insonparvarlik (90 %);
- beg'arazlik (82%);
- mehribonlik (73 %);
- insofililik (70 %);
- odoblilik (61 %);
- do'stlik (57 %);
- dilkashlik (56 %);
- sodiqlik (55 %);
- kechirimlilik (42 %);
- hamdardlik (28 %);
- kamtarlik (21 %).

To'g'ri, oddiy respondentlar javobida beg'arazlik ham (82 %) ham yuqori foiz olgan, ammo u insonparvarlik, mehribonlik va halollikni eng muhim fazilatlar sifatida qarashga xalaqit bermaydi. Bizning fikrimizcha, har ikkala respondentlarning 50 foizdan ziyod olgan javoblarini faol-lider portretiga asos qilib olish mumkin. Agar shu yondashuvdan kelib chiqsak, rahbar ayoldagi ma'nnaviy-axloqiy fazilatlarga:

- halollik;
- insonparvarlik;
- mehribonlik;
- beg'arazlik;
- insofiliq;
- dilkashlik;
- odoblilik;
- do'stlik;
- sodiqlik kabilalar kiradi, deyishimiz mumkin.

To'g'ri, ushbu fazilatlar qolgan javoblarni rad etmaydi, o'rni kelganida, albatta, vaziyatlardan kelib chiqib, kamtarlik va hamdardlik yetakchi o'ringa chiqishi mumkin. Lekin yuqoridagi to'qqiz fazilat ijtimoiy-siyosiy faol ayolning portretini yaratishga asos bo'la oladi.

Ilmiy-metodologik ahamiyatga ega bo'lgan bir narsani aytib o'tishimiz lozim. Yuqoridagi ma'nnaviy-axloqiy fazilatlar qishloq ayollarini orasida boshqacha, shahar ayollarida o'zgacha, talaba xotin-qizlar orasida boshqacha, ishchi-xizmatchi ayollar o'rtasida o'zgacha, uy bekalari o'rtasida boshqacha, tadbirkor xotin-qizlar javoblarida o'zgacha ko'rsatkichlar berishi mumkin. Bunday yondoshishdan kelib chiqsak, xotin-qizlar qatlamlaridagi ijtimoiy-siyosiy borliqqa munosabatlar dinamikasini tadqiqot ob'ekti qilib olishimizga to'g'ri kelardi. Biz diqqatimizni davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini o'rganishga qaratganmiz, bu faollikka xos bo'lgan fazilatlar va xislatlarni umumiylar tarzda belgilab olish bilan cheklanishga undadi. Ammo bu kelgisida ijtimoiy-siyosiy faol xotin-qizlarning portretini ularning turli qatlamlari (talaba xotin-qizlar, ishchi ayollar, shahar va qishloq xotin-qizlari, uy bekalari va tadbirkor ayollar) nuqtai nazaridan ham yaratish mumkinligini rad qilmaydi, balki unga yo'l ochib beradi.

Ijtimoiy-siyosiy faoliyat uchun lider-yetakchilik, tashkilotchilik bosh xislatlardan biri hisoblanadi. Ma'nnaviy-axloqiy fazilatlar qanchalik muhim bo'lmisin, liderliksiz ijtimoiy-siyosiy faollikni tasavvur etish qiyin. J.Blondel haq, qaerda guruuhlar bo'lsa, shu yerda lider bo'lishi tabiiydir, shuning uchun liderlik insoniyat kabi qadimiy fenomendir [6. S. 395].

Ijtimoiy-siyosiy faoliyat, davlat boshqaruvi tizimida ishtirok etish siyosiy ahamiyatga ega xatti-harakatlardir. Bu sohadagi liderlikni boshqarish psixologiyasida nazarda tutiladigan "siyosiy liderlik" deb atash mumkin [7. S. 395]. Biroq, mazkur siyosiy liderlik turli pog'onalarida, ya'ni davlatlar, millatlar, xalqlar, partiyalar, guruuhlar pog'onalarida namoyon bo'ladi. Biz bu o'rinda davlatimiz (Xotin-qizlar qo'mitasi va uning bo'limlari), xalqimiz va millatimiz (Oliy Majlis, siyosiy partiyalar), guruuhlar (nodavlat tashkilotlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari) pog'onasiga taalluqli siyosiy liderlik haqida so'z yuritamiz.

"Liderlik, – deb yozadi J.Blondel, – bu hokimiyatdir, chunki u "hokimiyat tepasida turgan" bir yoki bir necha kishining boshqalar qilishni xohlamagan yoki umuman qilmaydigan ishni bajarishga majbur etish qobiliyatidir" [8. S. 397]. To'g'ri, tadqiqotchi bu ta'rifida siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan, majburlov mexanizmidan foydalanish huquqiga ega davlat xizmatchisini nazarda tutadi. Bizning ijtimoiy-siyosiy faol ayolimizda esa bunday huquq yo'q, unda bitta boshqarish huquqi (to'g'rirog'i, ijtimoiy-psixologik ta'sir usuli) mavjud, u ham bo'lsa, so'zi yoki ibratli xatti-harakatlari orqali tizim oldiga qo'yilgan maqsadga kishilarni da'vat etish, ishontirish, yetaklashdir. Uning asosiy quroli so'z, da'vat va ibratli xatti-harakatidir. Shu ma'noda siyosiy lider-ayolning vazifasi davlat boshqaruvi tizimiga faoliyatini takomillashtirishda, qo'yilgan maqsadga kam mablag', kuch va vaqt sarflab, samarali yo'llar bilan erishishda yordam berishdir.

### XULOSA

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvi tizimida sub'ekt sifatida faoliyat yuritishi ijtimoiy-siyosiy institutlar oldidagi funksiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ayollar davlat boshqaruvi tizimida qatnashar ekan, eng avvalo ushbu boshqaruv tizimining funksional xususiyatlaridan, ularni bajarish texnologiyasidan yaxshi xabardor bo'lishlari talab etiladi.

## FALSAFA

Rahbar nomzod tanlashda kadrlar zahirasiga kiritilgan ayollarning ijtimoiy-psixologik, hissiy-emotsional xususiyatlari hamda qobiliyatları yuzasidan aniq ma'lumotga ega bo'lishi shart. Bu faoliyatni to'g'ri yo'naltirish, rejalashtirish, natija kutishning ishonchliligini oshiradi.

Siyosiy liderlik ijtimoiy-siyosiy tajribani talab etadigan faoliyat turidir, uni faqat kitoblarni o'qib, ma'ruzalar tinglab shakllantirish qiyin. Tajriba ko'rsatadiki, liderlik kishilarni bilmaydigan yoki qilishni istaydigan ishni qilishga ko'ndirish, undash, erishish san'atidir. Professional rahbarda kishilarni majburlash imkonи mavjud, ijtimoiy-siyosiy faoliyatga ayol liderda bunday imkoniyat yo'q, u kishilarni undashi, ko'ndirishi orqali ko'zlangan maqsadiga erishadi. U tom ma'nodagi demokratik boshqarish vakilidir, o'z faoliyati bilan davlat boshqaruvi tizimiga demokratik qadriyatlarni olib kiradi, ularning qaror topishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. Toshkent.: "O'zbekiston", 2019. - B. 160-161.
2. Ходжаева С.А. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан. (историко-правовое исследование): Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – Тошкент, 2004. – С.19.
3. Арипов М.К. Социально - утопические идеи в Средней Азии. – Тошкент: Фан, 1984. – С.12-17.
4. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 234-235.
5. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 236.
6. Блондель Ж. Политическое лидерство // Психология и психоанализ власти. Т.1. Самара: Изд. Дом "Бахрах", 1999. – С. 395.
7. Блондель Ж. Политическое лидерство // Психология и психоанализ власти. Т.1. Самара: Изд. Дом "Бахрах", 1999. – С. 395.
8. Блондель Ж. Политическое лидерство // Психология и психоанализ власти. Т.1. Самара: Изд. Дом "Бахрах", 1999. – С. 397.